

KODEKSGA MUVOFIQ SPORTCHILAR, SPORTCHILARNI QO'LLAB- QUVVATLOVCHI XODIMLAR VA BOSHQA GURUHLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

- **SPORTCHINING MAJBURIYATLARI:**

- Sportchining asosiy vazifasi - dopingga yo‘q deb aytish!
- Antidoping qoidalarini bilish va ularga rioya qilish;
- Har qanday vaqtda namuna olish uchun tayyor bo‘lish;
- Dopingga qarshi kontekstda nima iste'mol qilayotgani va qo‘llayotganligi uchun javobgar bo‘lishini bilish;
- Tibbiyot xodimlarini taqiqlangan moddalar va taqiqlangan usullardan foydalanmaslik majburiyatlari to‘g‘risida xabardor qilish, ularga ko‘rsatiladigan har qanday tibbiy yordam antidoping siyosati va milliy antidoping qoidalariga muvofiq qabul qilingan mahalliy qoidalarga zid kelmasligi uchun javobgar bo‘lishlarini bilish;
- Antidoping qoidalari buzilishini tekshirishda O‘zMADA bilan hamkorlik qilish.
- Butunjahon antidoping kodeksiga ko‘ra, sportchilar o‘z organizmida taqiqlangan moddalar mavjudligi uchun qat’iy javobgar. Shuning uchun sportchilar dori-darmonlarni va ayniqsa biologik faol qo‘sishchalarni (parhez qo‘sishchalarini) qabul qilishda juda ehtiyyot bo‘lishlari kerak, chunki ular tarkibida taqiqlangan moddalar bo‘lishi mumkin.



- SPORT XODIMLARI MAJBURIYATLARI:

- Antidoping qoidalarini bilish va ularga rioya qilish;
- Sportchilar uchun sinov dasturlarini amalga oshirishda hamkorlik qilish;
- Dopingga nisbatan murosasizlik muhitini yaratish uchun sportchiga, uning qarashlariga va xattiharakatlariga ta'sir etishdan foydalanish;
- Antidoping qoidalari buzilishini tekshirishda Antidoping tashkilotlari bilan hamkorlik qilish;
- Sportchilarni qo'llab-quvvatlovchi xodimlar biron bir taqiqlangan moddani yoki taqiqlangan usulni hech qanday sababsiz ishlatmasligi yoki egallamasligi kerak.

- SPORTCHINING HUQUQI :

- Dopingdan holi musobaqalarda qatnashish;
- Butunjahon antidoping kodeksi, xalqaro standartlar va dopingga qarshi milliy qoidalarning barcha qoidalariga rioya qilish;
- Antidoping qoidalari buzilganligi to‘g‘risida o‘z vaqtida va ob'ektiv ma'lumot olish;
- Antidoping qoidalari buzilishi to‘g‘risidagi da'volarni xolisona ko‘rib chiqish;
- Antidoping qoidalari buzganlik ayblovi va qo'llanilgan sanksiyalar bo'yicha apellyasiya shikoyati berish.

